XALQ DEPUTATLARI TO‘RTKO‘L TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 13-sentabr VI-87-144-13-190-K/24 To‘rtko‘l tumani

To‘rtko‘l tumanining ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi 2020-yil 28-avgust kungi O‘RQ-635-sonli Qonunining 10-, 26-moddalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasining “Qoraqalpog‘iston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 8-, 17-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan tasdiqlangan (*2023-yil 15-dekabrdagi 03/4.3-253-son*)“Yo‘l xaritasi”ning 8 va 9-bandlari, To‘rtko‘l tumaniningma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuzilgan komissiyasining 2024-yil 9-avgustdagi 01-08/16-08/73-sonli yig‘ilish bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. To‘rtko‘l tumanining ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuzilgan komissiyaning 2024-yil 9-avgustdagi 01-08/16-08/73-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ma’muriy-hududiy birliklari belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyasi tomonidan taqdim etilgan materiallarga asosan:

– To‘rtko‘l tumanining chegaradosh tumanlar bilan ma’muriy-hududiy birliklari chegarasini belgilash tavsifi 1-ilovaga va chegara kartografik sxemasi 2-ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumaniKengashining mazkur qarori mahalliy gazeta hamda hokimlikning internetdagi veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qarorni tasdiqlash Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qarg‘i Kengesidan so‘ralsin.

5. Ushbu qarorning ijrosi nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi

SHAMURATOV
RUSTAM AZATOVICH

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani
Kengashining
2024-yil 13-sentabrdagi
VI-87-144-13-190-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tumanining chegara

TAVSIFI

Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tumanining chegaralarini belgilash ishlari quyidagicha tavsiflandi:

To‘rtko‘l tumani Ellikqal’a tumani va Navoiy viloyati ma’muriy-hududiy chiziqlari kesishgan joy, boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 42° 14' 12,247", sharqiy uzoqlik koordinatalari koordinatalari 61° 51' 45,233").*

A dan B gacha Navoiy viloyati yerlari bilan 1-2-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan 2-nuqtagacha chegara chizig‘i O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman (shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yisha “Yo‘l xaritasi”da berilgan topshiriqlarga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma’muriy-hududiy chegarasi belgilangan chegara chizig‘idan olingan *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 24' 21,726", sharqiy uzoqlik koordinatalari 62° 9' 0,875")*

B dan D gacha Buxoro viloyati yerlari bilan 2-3-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

2-nuqtadan 3-nuqtagacha chegara chizig‘i O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman (shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yisha “Yo‘l xaritasi”da berilgan topshiriqlarga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma’muriy-hududiy chegarasi belgilangan chegara chizig‘idan olingan *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 1' 1,183", sharqiy uzoqlik koordinatalari 62° 13' 8,220")*

D dan E gacha Xorazm viloyati yerlari bilan 3-4-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

3-nuqtadan 4-nuqtagacha chegara chizig‘i O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman (shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yisha “Yo‘l xaritasi”da berilgan topshiriqlarga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma’muriy-hududiy chegarasi belgilangan chegara chizig‘idan olingan *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 30′ 43,315″ sharqiy uzunlik koordinatalari 60° 55′ 55,404″).*

E dan A gacha Ellikqal’a tumani yerlari bilan 4-1-nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

4-nuqtadan chegara chizig‘i avval Amudaryo o‘zanidan, shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 446 metr keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishida 232 metr masofani o‘tib, Amudaryo chap qirg‘og‘idagi 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 30′ 47,072″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 56′ 15,582″)*

5-nuqtadan chegara chizig‘i Amudaryo ong qirg‘og‘idan Amudaryo o‘zaniga shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 936 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 192 metr masofani o‘tib, Amudaryo o‘zanidagi 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 31′ 12,882″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 56′ 48,023″)*

6-nuqtadan chegara avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 131 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 258 metr masofani o‘tib, Amudaryo ong qirg‘og‘i bo‘yidagi 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 31′ 22,225″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 56′ 42,053″)*

7-nuqtadan chegara avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 521 metr, keyin sharqiy yo‘nalishida 115 metr masofani o‘tib, 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 31′ 36,399″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 56′ 59,159″)*

8-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 403 metr masofani o‘tib, 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 31′ 41,730″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 11,373″)*

9-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida 479 metr masofani o‘tib, 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 31′ 38,810″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 31,079″)*

10-nuqtadan chegara chizig‘i avval ko‘lning o‘ng tomoni bilan, shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 104 metr keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 169 metr masofani o‘tib, 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 31′ 44,655″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 26,175″)*

11-nuqtadan chegara chizig‘i avval ariqning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 208 metr o‘ng tomoni bilan keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 228 metr masofani o‘tib, ko‘l bo‘yidagi 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 31′ 55,927″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 22,210″)*

12-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 419 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 32′ 8,095″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 16,696″)*

13-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 392 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 32′ 18,254″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 22,828″)*

14-nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 276 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 32′ 22,490″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 13,103″)*

15-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan 578 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 32′ 32,935″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 33,488″)*

16-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1021 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 32′ 57,001″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 4,458″)*

17-nuqtadan chegara chizig‘i avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishida ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 255 metr, keyin kanalning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 262 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 33′ 9,450″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 3,688″)*

18-nuqtadan chegara chizig‘i avval ariqning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan 347 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 169 metr masofada, kanalni kesib o‘tib, 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 33′ 24,969″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 3,419″)*

19-nuqtadan chegara chizig‘i dala yo‘lining sharq tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda g‘arb yo‘nalishida 263 metr masofani o‘tib, 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 33′ 32,201″ sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 9,186″)*

20-nuqtadan chegara tog‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 440 metr masofada, avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘li bo‘yidagi 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 33′ 44,974″ sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 16,750″)*

21-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 654 metr masofani o‘tib, 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 34′ 4,337″ sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 5,319″)*

22-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali barcha burilishlarni hisobga olgan holda g‘arbiy yo‘nalishida 337 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yidagi 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 34′ 4,434″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 56′ 53,388″)*

23-nuqtadan chegara chizig‘i avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 164 metr, keyin avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 95 metr masofani o‘tib, 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 34′ 9,405″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 56′ 48,873″)*

24-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 229 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yidagi 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 34′ 14,049″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 56′ 55,269″)*

25-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab sharq yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 414 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 34′ 13,604″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 12,185″)*

26-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab sharqiy yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 457 metr masofani o‘tib,

zovur bo‘yidagi 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 34′ 14,988″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 30,782″)*

27-nuqtadan chegara chizig‘i avval zovurning suv oqimi bo‘ylab shimol yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan 955 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 972 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 35′ 6,007″ sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 58′ 5,674″)*

28-nuqtadan chegara chizig‘i avval, to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 562 metr, keyin shimol yo‘nalishida 192 metr, song avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 843 metr masofada, zovurni kesib o‘tib, 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 35′ 41,320″ sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 58′ 1,044″)*

29-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 827 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yidagi 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 36′ 6,083″ sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 46,771″)*

30-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 2092 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yidagi 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 37′ 6,681″ sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 8,000″)*

31-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan 1754 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 38′ 3,033″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 7,735″)*

32-nuqtadan chegara chizig‘i g‘arb yo‘nalishida zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 521 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 38′ 1,694″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 56′ 45,363″)*

33-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan, 1096 metr, keyin sharq yo‘nalishida 233 metr masofani o‘tib, 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 38′ 34,888″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 3,474″)*

34-nuqtadan chegara chizig‘i avval zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 791 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 408 metr, so‘ng shimol

yo‘nalishida 963 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 39′ 33,196″ sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 56′ 33,987″)*

35-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib, g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishida kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1229 metr masofani o‘tib, kanalini kesib o‘tib, 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 39′ 23,045″ sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 55′ 42,715″)*

36-nuqtadan chegara chizig‘i avval ariqning suv oqimi bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan 383 metr, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3174 metr masofani o‘tib, 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari*
41° 40′ 54,917″ sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 54′ 26,518″)

37-nuqtadan chegara avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 1345 metr, keyin g‘arb yo‘nalishida 375 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 41′ 30,502″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 53′ 42,370″)*

38-nuqtadan chegara avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 124 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishida 738 metr masofani o‘tib, 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 41′ 49,701″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 54′ 5,540″)*

39-nuqtadan chegara avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy yo‘nalishida 121 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida 221 metr masofani o‘tib, 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 41′ 44,617″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 54′ 15,130″)*

40-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy yo‘nalishida 328 metr masofani o‘tib, 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 41′ 45,720″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 54′ 28,066″)*

41-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali barcha burilishlarni hisobga olgan holda shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 1001 metr masofani o‘tib, 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 42′ 5,899″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 54′ 58,619″)*

42-nuqtadan chegara chizig‘i avval zovurni kesib o‘tib, janubiy yo‘nalishida 381 metr, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab sharq yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan 88 metr masofani o‘tib, 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 41′ 53,708″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 55′ 3,114″)*

43-nuqtadan chegara chizig‘i avval janub yo‘nalishida zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 332 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida 1358 metr masofani o‘tib, 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 41′ 21,636″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 55′ 53,921″)*

44-nuqtadan chegara chizig‘i avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 925 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida 1015 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 41′ 26,849″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 12,335″)*

45-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishida ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2501 metr masofani o‘tib, 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 40′ 9,053″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 37,853″)*

46-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 325 metr masofani o‘tib, kanalni kesib o‘tib, 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 40′ 7,249″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 51,223″)*

47-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishida kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 354 metr masofada, avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, 48-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 39′ 55,798″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 50,820″)*

48-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishida kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 315 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yidagi 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 39′ 45,687″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 57′ 51,116″)*

49-nuqtadan chegara chizig‘i avval Bo‘stan kanali suv oqimi bo‘ylab janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida chap tomoni bilan 84 metr, keyin sharq yo‘nalishida 751 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yidagi 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 39′ 46,098″ sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 58′ 25,159″)*

50-nuqtadan chegara chizig‘i Bo‘stan kanali suv oqimi bo‘ylab sharq yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan 986 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yidagi 51-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 39′ 36,621″ sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 59′ 22,948″)*

51-nuqtadan chegara chizig‘i avval, to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 374 metr, keyin sharqiy yo‘nalishida 445 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 52-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 39′ 45,637″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 59′ 49,687″)*

52-nuqtadan chegara chizig‘i avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishida 335 metr, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan 242 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 53-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 40′ 2,091″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 60° 59′ 58,779″)*

53-nuqtadan chegara chizig‘i avval zovurning suv oqimi bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan 497 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishida 227 metr masofani o‘tib, 54-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 40′ 2,161″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 0′ 24,690″)*

54-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 594 metr masofani o‘tib, dala yo‘li bo‘yidagi 55-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 40′ 10,092″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 0′ 44,623″)*

55-nuqtadan chegara chizig‘i dala yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-sharqiy yo‘nalishida 901 metr masofani o‘tib, dala yo‘li bo‘yidagi 75-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 39′ 47,311″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 1′ 8,553″)*

56-nuqtadan chegara chizig‘i dala yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida 631 metr masofani o‘tib, dala yo‘li bo‘yidagi 57-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 39′ 39,686″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 1′ 33,454″)*

57-nuqtadan chegara chizig‘i avval zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishida chap tomoni bilan 1454 metr keyin shimol yo‘nalishida 3659 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 58-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 42′ 13,617″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 2′ 40,482″)*

58-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida chap tomoni bilan 2931 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 59-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 43′ 36,851″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 3′ 41,379″)*

59-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishida chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 855 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 60-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 43′ 57,536″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 3′ 58,481″)*

60-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishida chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 887 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 61-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 44′ 15,624″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 4′ 16,049″)*

61-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy yo‘nalishida chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1008 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 62-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 44′ 46,048″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 4′ 12,741″)*

62-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy yo‘nalishida chap tomoni bilan 951 metr masofada, avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, 63-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 45′ 16,778″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 4′ 15,518″)*

63-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy yo‘nalishida chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1338 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 64-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 45′ 58,132″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 4′ 19,086″)*

64-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida chap tomoni bilan 1715 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 65-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 46′ 52,081″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 4′ 34,552″)*

65-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 764 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 66-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 47′ 8,556″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 4′ 43,296″)*

66-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan 3899 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi

67-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 49′ 3,914″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 5′ 50,165″)*

67-nuqtadan chegara chizig‘i avval zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1858 metr keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 984 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 68-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 50′ 6,722″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 7′ 2,043″)*

68-nuqtadan chegara chizig‘i avval zovurning suv oqimi bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan 389 metr keyin shimol yo‘nalishida 2868 metr masofani o‘tib, 69-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 51′ 38,661″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 7′ 4,608″)*

69-nuqtadan chegara avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida 279 metr, keyin shimoliy yo‘nalishida 3634 metr masofada, avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, 70-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 53′ 31,961″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 7′ 43,464″)*

70-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 1737 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yidagi 71-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 53′ 47,174″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 8′ 56,000″)*

71-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishida 8045 metr masofani o‘tib, 72-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 58′ 3,700″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 9′ 55,095″)*

72-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy yo‘nalishida 3718 metr masofani o‘tib, 73-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 57′ 59,786″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 12′ 32,341″)*

73-nuqtadan chegara avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali barcha burilishlarni hisobga olgan holda sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida 3655 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 313 metr masofani o‘tib, 74-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 57′ 14,222″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 15′ 1,129″)*

74-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 1716 metr masofani o‘tib, 75-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 57′ 50,614″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 15′ 57,231″)*

75-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishida 4106 metr masofani o‘tib, 76-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 42° 0′ 2,008″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 16′ 24,979″)*

76-nuqtadan chegara chizig‘i to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 1782 metr, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab janubiy-sharqiy yo‘nalishida chap tomoni bilan 685 metr masofani o‘tib, 77-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 59′ 0,571″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 17′ 30,155″)*

77-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan 1117 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 78-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 59′ 15,452″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 18′ 14,322″)*

78-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1416 metr masofani o‘tib, dala yo‘li bo‘yidagi 79-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 58′ 42,988″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 18′ 51,001″)*

79-nuqtadan chegara chizig‘i avval dala yo‘lining g‘arb tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 226 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishida 833 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 80-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 58′ 28,227″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 19′ 26,683″)*

80-nuqtadan chegara chizig‘i avval zovurning suv oqimi bo‘ylab sharqiy yo‘nalishida chap tomoni bilan 1634 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 906 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 81-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 59′ 3,349″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 20′ 59,553″)*

81-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishida zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1815 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 82-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 59′ 8,990″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 22′ 17,221″)*

82-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 796 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 83-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 59′ 2,526″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 22′ 48,440″)*

83-nuqtadan chegara chizig‘i avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 701 metr, keyin sharq yo‘nalishida

285 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 84-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 59′ 13,770″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 23′ 27,040″)*

84-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishida zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 992 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 85-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 59′ 8,712″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 24′ 7,137″)*

85-nuqtadan chegara chizig‘i avval zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida chap tomoni bilan 509 metr, keyin sharq yo‘nalishida 347 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 86-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 59′ 22,483″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 24′ 32,707″)*

86-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 488 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 87-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 59′ 37,361″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 24′ 36,633″)*

87-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab sharqiy yo‘nalishida chap tomoni bilan 2218 metr masofani o‘tib, 88-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 59′ 37,981″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 26′ 12,764″)*

88-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishida 439 metr masofada, zovurni kesib o‘tib, ariq bo‘yidagi 89-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 59′ 23,822″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 26′ 13,182″)*

89-nuqtadan chegara chizig‘i g‘arbiy yo‘nalishida ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 706 metr masofani o‘tib, 90-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 59′ 23,284″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 25′ 42,617″)*

90-nuqtadan chegara chizig‘i avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishida 387 metr, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan 311 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yidagi 91-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 59′ 13,711″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 25′ 51,484″)*

91-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali barsha burilshlarni hisobga olgan holda janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida 628 metr masofani o‘tib, 92-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 58′ 55,551″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 26′ 2,795″)*

92-nuqtadan chegara avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali barsha burilshlarni hisobga olgan holda sharqiy yo‘nalishida 115 metr, keyin g‘arb yo‘nalishida 73 metr masofani o‘tib, 93-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 58′ 53,086″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 26′ 5,629″)*

93-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali barsha burilishlarni hisobga olgan holda janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida 424 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yidagi 94-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 58′ 42,383″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 26′ 12,053″)*

94-nuqtadan chegara chizig‘i avval dala yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishida 495 mert, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab g‘arb yo‘nalishida chap tomoni bilan 292 metr masofani o‘tib, 95-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 58′ 41,486″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 25′ 38,458″)*

95-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishida 872 metr masofada, zovurni kesib o‘tib, 96-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 58′ 13,801″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 25′ 37,516″)*

96-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishida 497 metr masofani o‘tib, 97-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 57′ 57,721″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 25′ 38,238″)*

97-nuqtadan chegara avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida 1306 metr, keyin janubiy yo‘nalishida 1006 metr masofani o‘tib, 98-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 57′ 11,972″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 26′ 32,412″)*

98-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy yo‘nalishida 1070 metr masofani o‘tib, Qitayqazg‘an zovuri bo‘yidagi 99-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 57′ 11,850″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 27′ 18,834″)*

99-nuqtadan chegara chizig‘i Qitayqazg‘an zovurining suv oqimi bo‘ylab shimoliy yo‘nalishida chap tomoni bilan 2795 metr masofani o‘tib, 100-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 58′ 42,294″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 27′ 16,689″)*

100-nuqtadan chegara chizig‘i avval Qitayqazg‘an zovurini kesib o‘tib, sharqiy yo‘nalishida 67 metr, keyin zovurining suv oqimi bo‘ylab shimoliy yo‘nalishida o‘ng tomoni bilan 310 metr masofani o‘tib, 101-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 58′ 52,325″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 27′ 19,290″)*

101-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy yo‘nalishida 2038 metr masofani o‘tib, 102-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 58′ 55,707″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 28′ 47,672″)*

102-nuqtadan chegara avval to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishida 1800 metr, keyin sharq yo‘nalishida 1403 metr masofani o‘tib, 103-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 41° 58′ 1,858″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 29′ 52,481″)*


103-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 19817 metr masofani o‘tib, 104-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 42° 7′ 36,246″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 36′ 17,758″)*

104-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishida 10522 metr masofani o‘tib, 105-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 42° 13′ 14,401″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 37′ 16,483″)*

105-nuqtadan chegara to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali sharqiy yo‘nalishida 20008 metr masofani o‘tib, To‘rtko‘l tumani, Ellikqal’a tumani va Navoiy viloyati ma’muriy-hududiy chiziqlari kesishgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari 42° 14′ 12,247″, sharqiy uzoqlik koordinatalari 61° 51′ 45,233″).*

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani
Kengashining
2024-yil 13-sentabrdagi
VI-87-144-13-190-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tumanining CHIZMASI



Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B gacha *Navoiy viloyati yerlari*
B dan D gacha *Buxoro viloyati yerlari*
D dan E gacha *Xorazm viloyati yerlari*
E dan A gacha *Ellikqal’a tumani yerlari*

Shartli belgilar

To’rtko‘l tumanining chegarasi va yer maydoni
1 *To’rtko‘l tumani chegarasining burilish nuqtasi va raqami*